



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR 2020-yil yanvar-iyun

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami 17 755,3 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi. 2019 - yilning mos davriga nisbatan 89,5 % ni tashkil qildi. Ularning 43,9 % yoki 7 802,1 mlrd. so`m miqdorida korxonalar o'z mablag'i, aholi mablag'i hisobidan o`zlashtirilgan bo`lsa jalb qilingan mablag`lar hisobidan 42,4 % yoki 7 532,5 mlrd. so`m o`zlashtirildi.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar
17 755,3 mlrd. so`m.
O`shir sur`ati 89,5 %

Markazlashgan
2 420,7 mlrd. so`m
O`shir sur`ati 83,0 %


Markazlashmagan
15 334,6 mlrd. so`m
O`shir sur`ati 90,6 %



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 % punktga kamayib, o'sish sur'ati 83,0 % ni yoki 2 420,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar - 15 334,6 mlrd. so`m o`shish sur`ati 90,6 % ni tashkil etdi.




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga o`zlashtirilgan korxonalar mablag`i - 7 802,1 mlrd. so`m yoki jami investitsiyalarga nisbatan 43,9 % ni tashkil etdi. Aholi mablag`i - 484,9 mlrd. so`m (2,7 %).

MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO`YICHA ASOSIY KAPITALGA O`ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR

(jamiga nisbatan, % da)





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari hisobidan - 2 807,1 mlrd. so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,9 % ni tashkil etib, o'sish sur'ati 50,0 % ga yetdi), to`g`ridan-to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar - 4 240,6 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 23,9 %, o'sish sur'ati 125,3 %), O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 1 030,7 mlrd.so`m ('sish sur'ati 169,9 %), Respublika byudjeti - 1 140,7 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 6,4 %, o'sish sur'ati 76,9 %), Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi - 44,3 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 0,2 %, o'sish sur'ati 140,3 %) hamda tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi hisobidan esa - 205,0 mlrd. so`m (jamiga nisbatan 1,2 %, o'sish sur'ati 26,1 %) asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirildi.


MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO`YICHA ASOSIY KAPITALGA O`ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR

| | mlrd. so`m | Ўсшш суръати, % | jamiga nisbatan ulushi % da |
|---|-----------------|-----------------|-----------------------------|
| Jami | 17 755,4 | 89,5 | 100,0 |
| Respublika byudjeti | 1 140,7 | 76,5 | 6,4 |
| Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi | 44,3 | 140,3 | 0,2 |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi | 205,0 | 26,1 | 1,2 |
| O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar | 1 030,7 | 169,9 | 5,8 |
| Korxonalar mablag'lari | 7 802,1 | 113,3 | 43,9 |
| Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari | 2 807,1 | 50,0 | 15,9 |
| To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar | 4 240,6 | 125,0 | 23,9 |
| Aholi mablag'lari | 484,9 | 46,3 | 2,7 |

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TUMANLAR KESIMIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING O'SISH SUR'ATI


(% da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 91,2 % Yunusobod tumanida kuzatildi. Shuningdek, Shayxontohur tumanida 87,7 % ni, Olmazor tumanida 89,7 % ni tashkil qildi. Bu asosan ushbu hududlarda zamonaviy uylarning qurilishi bilan bog'liq.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TUMANLAR KESIMIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR *(jamiga nisbatan % da)*



- Bektemir
- Mirzo Ulug'bek
- Mirobod
- Olmazor
- Sergeli
- Uchtepa
- Chilonzor
- Shayxontohur
- Yunusobod
- Yakkasaroy
- Yashnobod


Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar bo'yicha Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,7 % to'g'ri keldi.

Shuningdek, Shayxontohur tumanida 16,6 % dan, Mirobod tumani 10,1 % ni, Olmazor tumani 9,0 % ni tashkil etdi. Eng kam o'zlashtirgan investitsiyalar Bektemir hamda Uchtepa tumanida 3,2 % va 6,4 % kuzatildi.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING TEXNOLOGIK TARKIBI


(jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha - 5 945,4 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar - 9 987,5 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga - 1 822,4 mlrd. so'm o'zlashtirildi.


TUMANLAR KESIMIDA TEXNOLOGIK TARKIBI

(jamiga nisbatan, % da)



- Qurilish-montaj ishlari.
- Mashinalar, uskunalar, inventarlar.
- Boshqa xarajatlar.

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING TAKROR ISHLAB CHIQARISH TARKIBI (jamiq nisbatan, % da)




Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yo`naltirilgan. Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi - 5 945,3 mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 33,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar - 9 987,5 mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 56,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 10,3 %, ya'ni - 1 822,4 mlrd. so`m boshqa xarajatlarga to'g'ri keldi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TUMANLAR KESIMIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING TAKROR ISHLAB CHIQARISH TARKIBI (jamiga nisbatan %, da)



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish
- Boshqalar

Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Chilonzor tumanida kuzatilib, 48,6 % ni tashkil etdi.


Mos ravishda Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish jami investitsiyalardagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Bektemir tumanida kuzatilib, 73,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, jami investitsiyalar ulushi eng past ko`rsatkich Uchtepa tumanida kuzatilib 8,2 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA TARKIBI

(jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda asosiy kapitalga investitsiyalar - 4 933,9 mlrd. so'm o'zlashtirilib yoki jami investitsiyalarga nisbatan 27,8 % ni tashkil qildi.

Mos ravishda metallurgiya -1 235,5 mlrd. so'm (yoki 6,9 %).

Oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish - 692,0 mlrd. so'm (yoki 3,9 %).

Boshqa metall bo'lmagan mineral mahsulotlar ishlab chiqarish - 328,1 mlrd. so'm (yoki 1,8 %).




TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR


mlrd.so`m

| | Jami xorijiy investitsiyalar | shu jumladan: | | To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar | shu jumladan: | |
|-----------------|------------------------------|---------------|---------|--|---------------|---------|
| | | Investitsiya | Kredit | | Investitsiya | Kredit |
| Toshkent shahar | 5 271,3 | 2 634,0 | 2 637,3 | 3 146,0 | 1 539,4 | 1 606,6 |
| Bektemir | 112,4 | 67,6 | 44,8 | 78,4 | 33,6 | 44,8 |
| Mirzo Ulug`bek | 286,1 | 275,5 | 10,6 | 86,2 | 86,2 | 0,0 |
| Mirobod | 100,1 | 100,1 | 0,0 | 39,4 | 39,4 | 0,0 |
| Olmazor | 312,2 | 237,0 | 75,2 | 110,6 | 66,7 | 43,9 |
| Sergeli | 182,3 | 78,5 | 103,8 | 117,6 | 14,0 | 103,6 |
| Uchtepa | 177,3 | 53,0 | 124,3 | 15,5 | 0,6 | 14,9 |
| Chilonzor | 595,3 | 104,2 | 491,2 | 503,5 | 80,5 | 423,0 |
| Shayxontohur | 1 675,3 | 975,6 | 699,7 | 1 091,9 | 928,7 | 163,2 |
| Yunusobod | 874,6 | 204,8 | 669,8 | 483,3 | 71,8 | 411,5 |
| Yakkasaroy | 361,6 | 350,1 | 11,5 | 118,7 | 116,0 | 2,7 |
| Yashnobod | 594,0 | 187,6 | 406,4 | 500,9 | 102,1 | 398,8 |

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar (jamiga nisbatan % da)



TOSHKENT SHAHRI BO'YICHA FOYDALANISHGA TOPSHIRILGAN UY-JOYLAR (ming kv.m.)



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 164,4 ming kv.m, bo'lgan 664 ta turar-joy obyektini yangi qurilib ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar-joylarning hududlar kesimida ko'radigan bo'lsak, eng ko'p qismi Olmazor tumanida ishga tushirilgan bo'lib, 34,8 ming kv.m va shahar bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 21,2 % ni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni Sergeli tumani egallagan bo'lib, shahar bo'yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 22,6 ming kv.m va 13,8 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi Investitsiya
va qurilish statistikasi bo'limi
2020-yil yanvar-iyun**

**Nashr uchun mas'ul: Sh. Samiyev
Aloqa telefoni: (071) 230-88-18**

**Toshkent shahar statistika
boshqarmasi
Toshkent sh., Amir Temur shoh
ko`chasi, 11 uy**